

**O‘zbekiston Respublikasi Energetika bozorini rivojlantirish  
va tartibga solish agentligi direktorining  
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumat hujjatlari  
ijrosi bo‘yicha keng jamoatchilikka  
HISOBOTI**

Agentlikda ijro intizomiga rioya etilishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son, “Davlat organlari va tashkilotlarda ijro intizomini yanada mustahkamlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 25-iyuldagi PF-117-son Farmonlari hamda “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qaroriga asosan tashkil etilgan.

**"Ijro.gov.uz" yagona elektron tizimida Agentlikga belgilangan 41 ta (1 ta Qonun, 16 ta Farmon, 11 ta qaror, 1 ta farmoyish va 12 ta bayonlarda) qonunchilik hujjatlari bo‘yicha Agentlikda 168 ta (1 ta Qonun, 60 ta Farmon, 88 ta qaror, 2 ta farmoyish va 17 ta bayonlarda) topshiriq mavjud bo‘lib, ulardan 105 tasi bajarilgan, 63 ta topshiriq bajarilmoqda.**

**105 tasi** ijro muddatida bajarilib nazoratdan yechilgan hamda "Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimida joriy holati **“bajarilgan”** maqomida.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hamda Hukumatning topshiriqlarida belgilangan vazifalar ijrosi har haftaning dushanba va juma kunlari tanqidiy ko‘rib chiqilmoqda.

Davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Adliya vazirligi, “Taraqqiyot strategiyasi” markaziga har tomonlama ko‘maklashib borilmoqda.